

GOSSYPIUM HIRSUTUM L G‘O‘ZADA BARG SHAKLINI TUZILISHINI GENETIK VA ANOTOMIK TAXLILI

Kanalova Sug‘diyona Davronbek qizi

AndDUPI Aniq va tabiiy fanlar fakulteti, biologiya yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

E-mail: a.yu.genetikus@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada g‘o‘za o‘simligida barg shaklini irsiylanishining genetik taxlili va anatomik tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Аннотация: В статье представлены сведения о анатомическом строении формы листа и генетическом анализ и наследования у хлопчатника.

Annotation: The article presents information about the anatomical structure of the leaf shape and genetic analysis and inheritance in cotton.

Kalit so‘zlar: gossipium, korpus, sturtia, simmetrik, geterozigota, gomozigota, allel.

Ключевые слова: госсипиум, корпус, стурция, симметричный, гетерозиготный, гомозиготный, аллельный.

Keywords: gossipium, corpus, sturtia, symmetrical, heterozygous, homozygous, allelic.

G‘o‘za gulhayridoshlar oilasiga mansub o‘simlikdir. G‘o‘zaning 3 ta kenja turkumi bor. Bular–gossipium, korpus, sturtia. Bular bir yillik, ko‘p yillik butalar va daraxtlarni o‘z ichga oladi. G‘o‘zaning 50 turi ma‘lum. Tola olinadigan o‘simlik sifatida xindi- xitoy, afrika-Osiyo, Meksika, peru g‘o‘zalari ekib kelinmoqda. G‘o‘zaning barg shaklini irsiylanishini o‘rganishda biz ko‘proq G.hirsutum L g‘o‘za turida kuzatamiz. Chunki bu g‘o‘za navida bargning turli hil formalari yaqqol ko‘zga tashlanadi va boshqa g‘o‘za navlari bilan chatishtirilganda ham barg shaklini irsiylanishini kuzatish osonroq amalga oshadi.

Odatda, madaniylashtirilgan *G.hirsutum L*, *G barbadense L*, amfidiplod turlarda barg shakllari besh bo‘lakli panjasining kirtikli xamda besh bo‘lakli panjasimon kesikli va qirquimlidir. Yaqinda *G.hirsutum L* turida yaxlit bargli mutant shakli tavsiflandi.(2.7b).

G‘o‘zaning bargi–barg yaprog‘i, barg bandi va ikkita barg yong‘indan iborat. Barg yaprog‘i g‘o‘za turiga va o‘sayotgan muhitiga qarab bo‘laklarga bo‘linadi, ya’ni 3; 5; 7 va 2; 4; 6; 8 bo‘lakli vakillari ham uchrab turadi. Shuni xam aytishimiz kerakki g‘o‘zaning bargi ma’lum shaklda bo‘lgan turlarida, geterofiliya hodisasini ko‘rishimiz mumkin. Bu g‘o‘za o‘simligining asosiy 4 ta bargi yaxlit bargli, kegingi barglar esa o‘simlik genotipiga hos barg shaklini namoyon qiladi desak bo‘ladi.

Barg shaklini genotipini o‘rganishda ko‘p olimlarimiz o‘z hissasini qo‘shganlar. Bulardan biri J.A Musayev turlararo duragay *G.barbadense L* x *G.trilobum L* navlarini chatishtirib panjasimon kesik *G.trilobum L* barg shakli to‘liqsiz ustunlik qilishini tajriba orqali aniqladi (2.17 b). N.P. Krenke esa barg yaprog‘i bo‘laklarga bo‘lingan g‘o‘zaning har qanday tur va navida yaproq bo‘laklari simmetrik va simmetrik bo‘lmagan barglar o‘rtasida o‘tkinchi yaproqli barglar ham bordir: bu so‘nggi shakldagi bargda yaproq bo‘lagini toqdan juftga aylanishi mumkin (1.91b). Masalan 3 bo‘lakli bargdan 5 bo‘lakli va undan ham ko‘proq bo‘lakli barg chiqadi.

Barg shaklining irsiylanishida esa 3 guruh noallel genlar ishtirok etadi. Bular— **In^1-in^1 ; O^1-o^1** .

Barg sathini boshqaruvchi genlar barg shaklini boshqaruvchi genlar uchun maydon vazifasini o‘taydi. Ya’ni **Sq^1-sq^1** genlari barg shaklining rivojlanishini ta’minlovchi genlar **In^1-in^1** va **$O^1-O^1s-o^1$** uchun maydon bo‘lib xizmat qiladi. G‘o‘za bargining pastki ikki boshinig rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi gen geterozigot holatda bo‘ladi ($In^1 in^1$). Bu genning dominant gomozigot holati ($In^1 In^1$) bargning bo‘laklarga bo‘linishini to‘xtatib qo‘yadi va natijada yaxlit barg rivojlanishiga olib keladi.

Yaxlit bargning turli formalarining borligi O^1 genining allellariga bog‘liq. $In^1In^1o^1o^1$ —yaxlit barg dumaloq, $In^1In^1O^1O^1$ —yaxlit barg tuxumsimon, $In^1In^1O^1sO^1s$ —yaxlit barg lentasimon holatda bo‘ladi. Agar In^1 geni retsessiv gomozigot holatga o‘tsa ($in^1 in^1$) bunda besh panjali barglar rivojlanishi ko‘rsa bo‘ladi.

G‘o‘za o‘simligining dastlabki barglari yaxlit holda bo‘ladi, keyinchalik esa 3 bo‘lakli va 5 bo‘lakli barglar shakli rivojlanadi. Albatta bu o‘simlik genotipiga qarab fenotipda dastlabki barg shakllari namoyon bo‘ladi.

G‘o‘zada barg shaklini irsiylanishiniva bu hodisa genga bog‘liq holda namoyon bo‘lishi o‘rganilgan. Lekin

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. A.I.Shleyxer—Paxtachilik. Toshkent (1958)
2. M.F.Abzalov—G‘o‘zada genlarning o‘zaro ta’siri. Toshkent (2010).
3. M.Ergashev, Sh.Turabekov, T.Kuliyev—G‘o‘za genetikasi. Guliston (2015).